

**VAZIFAGA ASOSLANGAN O‘QITISH (TASK-BASED LEARNING)
YONDASHUVI ORQALI O‘QUVCHILARDA OG‘ZAKI NUTQNI
RIVOJLANTIRISH**

Rahimjonova Mahfuza Ne‘matjon qizi

Namangan davlat chet tillari instituti talabasi

E-mail: raximjonovamaxfuza20@gmail.com

Soliyev Umidjon Yulchivoyevich

Namangan davlat chet tillari instituti katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganyotgan yoshlarda og‘zaki nuq ko‘nikmalarini oshirishda vazifaga asoslangan o‘qitish (Task-Based Learning (TBL)) metodikasining samaradorligi tahlil qilinadi. TBL-metodining asosiy vazifasi real hayotdagi muloqot vaziyatlariga yaqin bo‘lgan bo‘lgan topshiriqlarni bajarish orqali o‘quvchilarni faol muloqotga jalb etish. Real hayotga aloqador topshiriqlar bolaning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, erkin, ishonch bilan fikr bildirish qobiliyatini hamda lug‘at boyligini oshirishga yordam beradi. Maqolada bu metodning nazariy asoslari, darsni rejalashtirish usullari, olingan natijalar hamda pedagoglar uchun tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Task-Based Learning yondashuvi, mashqlar tizimi, kichik guruhlarda ishlash, baholash mezon, interfaol ta’lim.

Abstract: This article analyzes the effectiveness of the Task-Based Learning (TBL) methodology in improving oral speech skills in young people learning English as a foreign language. The main task of the TBL method is to involve students in active communication by completing tasks that are close to real-life communication situations. Tasks related to real life increase the child's interest in language learning, help to increase the ability to express ideas freely and confidently, and increase vocabulary. The article presents the theoretical foundations of this method, lesson planning methods, results obtained, and recommendations for teachers.

Keywords: Task-Based Learning, pre-task, task cycle, group work, assessment criteria, interactive education

Аннотация: В данной статье анализируется эффективность методики обучения на основе задач (TBL) в совершенствовании навыков устной речи у молодых людей, изучающих английский язык как иностранный. Основная задача метода TBL - вовлечь учащихся в активное общение путем выполнения заданий, приближенных к ситуациям реального общения. Задания, связанные с реальной жизнью, повышают интерес ребенка к изучению языка, помогают повысить способность свободно и уверенно выражать свои мысли и увеличить словарный запас. В статье представлены теоретические основы данной методики, методы планирования уроков, полученные результаты и рекомендации для учителей.

Ключевые слова: Методология обучения на основе задач, предварительное задание, цикл заданий, групповая работа, критерии оценки, интерактивное образование.

Bugungi globallashuv jarayonida ingliz tili xalqaro muloqot, ta'lim sohasida hamda fan-texnika va biznes sohaslarida ham eng muhim aloqa vositasiga aylangan. Shu bois ingliz tilini samarali o'qitish, ayniqsa, og'zaki nutq ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirish ta'lim tizimining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda o'quvchilarga til o'rgatishda an'anaviy metod va usullarda foydalanish har doim ham kutilgandek natijaga olib bormayapti. Ko'plab o'quvchilar tildagi grammatik qoidalarni bilishlariga qaramasdan, real hayotiy vaziyatlarda chet tilida erkin muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bu muammo asosan ta'lim jarayonida asosiy e'tibor nazariy bilimga qaratilish hamda amaliy mashqlarning yetishmovchiligi bilan bog'liq. Xorijiy davlatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni isbotladiki, Task-Based Learning Metodi o'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirishda samarali usullardan biridir.

Task-Based Learning bu o'quvchilar real hayotiy vazifalarni bajarish orqali tilni o'rganiladigan ta'lim yondashuvi ya'ni o'quvchilarga tilni haqiqiy muloqot vaziyatlarida qo'llashga imkon beradi. TBL metodikasi 1980-yillarda taniqli tilshunoslar N. Prabhu, M. Long va J. Willis tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib hozirgi kunda dunyo ta'lim tizimida keng qo'llanilib kelmoqda. Ushbu yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, o'quvchilarni "passiv bilim qabul qiluvchi" mavqeidan faol ishtirokchiga aylantirib ulardagi til ko'nikmalarini, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish hisoblanadi. TBL asoschilari Jane Willis va Ros Ellis bu metodni uch qismda tuzishgan:

1. Pre-task (tayyorlov bosqich) - mavzu bilan tanishtirish, kerakli lug'at va ifodalarni ko'rib chiqish

2. Task cycle (asosiy faoliyat) - o'quvchilar juftlik yoki guruhda vazifani bajarishadi (muhokama, rolli o'yinlar, intervyular)

3. Language focus (til xulosasi) - vazifa davomida ishlatilgan til birliklarini tahlil qilish, tuzatishlar kiritish.

TBL Metodi orqali o'quvchilarda til o'rganishga bo'lgan xohish yanada oshadi, ular o'z fikrlari qo'rqmasdan ba'yon eta olishadi hamda savol berish, javob qaytarish va muzokaralar olib borishni o'rganadilar. O'quvchilar til o'rganish jarayonini maqsad sifatida emas, balki muammoni hal qilish jarayoni sifatida ko'radilar bu esa o'quvchidagi motivatsiyani yanada oshiradi. Bundan tashqari o'quvchilar endi o'rgangan yangi so'zlarini active tarzda ishlata boshlashadi bu esa lug'at boyligini kengayishida juda ham foydali bo'ladi.

Task-based language learning (TBL) ning afzalliklari:

1. TBL barcha yoshdagi va turli darajadagi o'quvchilar uchun qo'llaniladi va mos keladi.

2. O'quvchilar TBL orqali tilga ancha xilma-xil ta'sir ko'rsatadilar. Ular dars davomida o'z bilgan lug'at va grammatikadan foydalanishlari uchun erkinlikka ega bo'ladilar.

3. Bu metod mazmunli muloqotga imkon beradi va o'quvchilarni tilda yanada faol bo'lishga undaydi.

Task-Based Learning yondashuvining samarali ekanligi haqida ham bir qancha olimlar o'z fikrlarini bildirishgan:

Mashhur tilshunos R.Ellis o'zining "Task-Based Language Learning and Teaching" asarida shunday deydi: "Tilni o'rganishning eng samarali yo'li - uni real muloqot jarayonida qo'llashdir. O'quvchilar grammatika qoidalarini yod olish orqali emas, balki mazmunli vazifalarni bajarish jarayonida tilni o'zlashtiradilar." Ya'ni TBL orqali o'quvchi grammatikani emas, muloqotni o'rganadi. Shu oqali o'quvchida og'zaki nutq faol rivojlanadi.

TBL modelining asoschilaridan biri hisoblanangan J.Willis shunday yozadi: "TBL o'quvchilarga o'z fikrini erkin ifoda etish, hamkorlikda ishlash va real hayotdagi vaziyatlarda muloqot qilish imkonini beradi." Uning fikricha, topshiriqlar o'quvchini gapirishga undaydi bu esa so'zlashuvda qo'rquvni yengish hamda tezlik va ishonchini oshiradi.

Long o'zining "Interaction Hypothesis" nazariyasida shunday ta'kidlaydi: "Til o'rganish asosan muloqot jarayonida, ayniqsa meaning negotiation (ma'no bo'yicha kelishish) paytida sodir bo'ladi." Ya'ni, real suhbat vaqtida biror narsa tushunarsiz bo'lsa o'quvchi uni tushuntirishga, izohlashga harakat qiladi bu esa tilni tabiiy yo'l bilan egallashga yordam beradi.

Prabhu Hindistonda 5 yil davomida maktablarda TBL yondashuvini sinab ko'rdi. Uning xulosalari:

"O'quvchilar grammatikani bevosita o'rgatmasdan ham, vazifalarni bajarish jarayonida tabiiy ravishda o'zlashtirishadi. Bu incidental learning (tasodifiy o'rganish) deb ataladi." Prabhu ta'kidlaganidek, o'quvchilar uchun tilni samarali o'rganish muhiti - bu ma'noga yo'naltirilgan topshiriqlar bajarish jarayonidir. Bu jarayonda o'quvchilarning e'tibori grammatikaga emas, balki kommunikativ maqsadga qaratiladi, ya'ni ular grammatikani bilvosita tarzda, tajriba orqali o'rganadilar.

P.Skehan TBLning psixolingvistik asoslarini o'rganib, quyidagi xulosani beradi: "Tasks enable learners to balance fluency, accuracy, and complexity through meaningful communication."

Uningcha, TBL mashg'ulotlarida o'quvchilar fluency (ravonlik), accuracy (aniqlik) va complexity (murakkablik) o'rtasida muvozanatni saqlashni o'rganadilar.

Muallif sifatida shuni ta'kidlab o'tmoqchiman ki men o'quvchilar bilan ishlash jarayonida turli hil metodlardan foydalandim, lekin hech qaysi bir matod TBL metodchalik foyda bermadi. 2025-yil oktyabr oyida 8-sinf o'quvchilari bilan o'tkazilgan darsimizda "Sevimli taomingizni tayyorlash" mavzusida TBL yondashuvini qo'lladim. O'quvchilar 4-5 kishilik guruhlariga bo'linib, ingliz tilida retsept tayyorladilar va taqdimot qildilar. Natijada, odatda darsda kam gapiruvchi o'quvchilar ham faol ishtirok etishdi. Men bu metodni o'quvchilarida 1 oy davomida sinab ko'rdim va natijalar sezilarli tarzda bo'ldi, eng asosiysi o'quvchilardagi gapirishga bo'lgan qo'rquv va ishonchsizlik yo'qoldi. Shaxsiy tajribamda duch kelgan asosiy muammo - o'quvchilarning ona tilidan foydalanishga moyilligi edi. Buni hal qilish uchun men "Only English Zone" muhitini shakllantirdim va ingliz tilida gapirganlar uchun ball tizimini joriy qildim. Agar bu metoddan yil davomida haftada bir marotaba bo'lsa ham darslarda foydalanilsa, o'quvchilarning og'zaki nutq ko'nikmalari sezilarli darajada yaxshilanadi. Task-Based Learning metodini o'z

faoliyatim davomida qo'llashda shunga amin bo'ldimki, o'quvchilar dars davomida bir-birlari bilan faol muloqot olib borishdi, fikr almashishdi va birgalikda muannolarga yecim topishdi. Bu esa TBL ning interaktiv ta'lim tamoyillari bilan ham chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi.

Interaktiv ta'lim-bu o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida, shuningdek o'quvchilar o'rtasida o'zaro bilish faoliyati va kommunikativ hamkorlikni ta'minlovchi ta'lim texnologiyalari. Bu yondashuvda asosiy e'tibor hamkorlikda o'rganish, fikr almashinish, faol muloqot qilish va amaliy faoliyat orqali bilim hosil qilishga qaratiladi ya'ni o'quvchini passiv learnerdan active learner darajasiga o'tkazish. Task-Based Learning orqali tashkil etilgan darslarda o'quvchilar nafaqat nazariy bilimlarini balki ularni amaliyotda qo'llashni, muloqot ko'nikmalarini va ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradilar. TBL va interaktiv ta'lim - bu ikki tomon emas, balki bir jarayonning ikki nomi. TBL ning muvaffaqiyati uning interaktiv tabiatida, interaktiv ta'limning eng samarali amalga oshirilishi esa TBL orqali bo'lishi mumkin.

Task-Based Learning yondashuvi o'quvchilarda og'zaki nutqni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Bu metodika o'quvchilarga real hayot sharoitlarida til ko'nikmalarini qo'llash, o'ziga ishonch hosil qilish va kommunikativ kompetensiyasini oshirish imkoniyatini beradi.

TBL ning muvaffaqiyati to'g'ri rejalashtirilgan vazifalar, o'qituvchining professional rahbarligi va o'quvchilarning faol ishtiroki kombinatsiyasiga bog'liq. Zamonaviy ta'lim tizimida ushbu yondashuvni qo'llash orqali biz nafaqat til bilimini, balki hayotiy muhim ko'nikmalarni ham rivojlantira olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ellis R. Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford University Press. 2003.
2. Willis J. A Framework for Task-Based Learning. Longman. 1996.
3. Nunan D. Task-based Language Teaching. Cambridge University Press. 2004.
4. Skehan P. A Cognitive Approach to Language Learning. Oxford University Press. 1998.
5. Long M. Input and Second Language Acquisition Theory. Cambridge University Press. 1985.
6. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press. 2014.